RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI

Bayjigitov Nishanboy Musurmanovich – GulDPI Pedagogika fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari

XXI asrga kelib globallashuvning shiddatli tus olishi barcha jarayonlarni o'ziga qamrab olmoqda. Ayniqsa, globallashuv davrida axborot bugungi kunda inson qalbi va ongini turli yo'nalishlarda ta'sir o'tkazuvchi qudratli vositaga, eng kuchli qurolga aylangan. Chunki, "Kimki axborotga ega bo'lsa u dunyoga egalik qiladi", - degan fikr bugungi kunda barcha tomondan e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, dunyo miqyosida axborot almashinuvining kuchayishi yoshlarni hamisha axborot oqimi ta'sirida bo'lishiga olib kelmoqda. Jamiyatni axborotlashtirish jarayonining o'zi, ko'pincha sof texnologik jarayon sifatida baholanishiga qaramay, mazmun-mohiyatiga ko'ra chuqur ijtimoiy jarayon ham hisoblanadi. Chunki axborotlashtirish jamiyatning bir shakldan boshqa, ijtimoiy taraqqiyotning yanada yuqoriroq darajasiga ega bo'lgan shakliga o'tishni anglatadi hamda jamiyatning istiqboldagi xususiyatlarini belgilab beradi.

Har qanday jarayonning yaxshi va yomon tomonlari bo'lganidek, jamiyatni axborotlashtirishning ham ijobiy hamda salbiy jihatlari mavjud. Xususan, axborotlashtirish va istiqbolli axborot texnologiyalari ishlab chiqarish samaradorligini hamda mehnat tejamkorligini oshirishni, ilmiy bilimlar va ilg'or texnologiyalar jamiyatda jadal tarqalishini, jamiyat intellektuallashuvi umumiy darajasini oshirishni ta'minlashi kabi ijobiy tomonlar bilan bir qatorda axborot makoni uchun kurash va insonga axborot-psixologik ta'sir ko'rsatishning avj olishi kabi alohida xavfni ham yuzaga keltiradi.

Axborot uzatish, almashinish va qabul qilish jarayonida tezkorlik, aniqlik, sifat va ta'sirchanlikni ta'minlash, axborotning dunyo bo'ylab keng yoyilishi imkoniyatini yaratishda "butun jahon o'rgimchak to'ri"ning ahamiyati katta va aynan mana shu omil undan foydalanish ehtiyojini tobora orttirmoqda.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosidagi zamonaviy vositalar hayotimizning muhim qismini egallab ulgurgan. Xususan, ijtimoiy tarmoqlar globallashuv jarayonlarini jadallashtirish bilan bir qatorda, insoniyat o'rtasida aloqa almashishning eng muhim va ajralmas vositasi bo'lib ulgurgan. Ayni damda **2024-yil aprel oyi** boshida butun dunyo bo'ylab jami **5,44 milliard** kishi internetdan foydalandi, bu butun dunyo aholisining **67,1 foiziga** teng[4].

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ham o'sishda davom etmoqda, 2024-yil aprel oyida faol ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari "identifikatsiyalari"ning umumiy soni **5,07 milliardga yetdi.**

[4] *https://datareportal.com/global-digital-overview*

Bu Yer yuzidagi barcha odamlarning **62,6 foiziga** teng va hozirda internet foydalanuvchilarining **93,3 foizi har oy ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishini ko'rsatadi.** Oxirgi 12 oy ichida dunyo bo'ylab faol ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari soni **5,4 foizga oshdi.**

Yangi yuz yillikda O'zbekistonga ham internet shiddat bilan kirib keldi va kundalik hayotda o'z o'rniga ega bo'ldi. DataReportal saytining ma'lumotiga ko'ra 2024-yil boshida O'zbekistonda 29,52 million internet foydalanuvchi bo'lib, 83,3 foizni tashkil qiladi. Mobil aloqalardan foydalanuvchilar soni 33,81 million bo'lib, jami aholining 95,5 foiziga teng. Shundan 2024-yil yanvar xolatiga 8,70 million ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi mavjud, bu umumiy aholining 24,6 foiziga teng[5].

Fan-texnika yutuqlari inson manfaatlari, ezgu maqsadlar yo'lida xizmat qilishi lozim, albatta. Biroq ayrim kuchlar virtual olamdan g'arazli niyatlari yo'lida foydalanyotgani ham ayni haqiqatdir. Psixologlarningfikriga ko'ra, axoliningfaqat 25-30 foizi axborotni tanqidiy nuqtai nazardan o'zlashtirishga qodir, qolgan 70 foiz odamlar esa olingan axborotning ta'siriga shundayligicha berilib ketadi. Buning oqibatida ommaviy axborotning hozirgi zamon vositalari va usullari jamiyat boshqaruvchanligini ta'minlaydi.

Bugungi kunga kelib dunyoning mafkuraviy manzarasi juda murakkablashib ketdi. Unda kuchli ta'sirga ega bo'lishning eng maqbul yo'li, har qancha mablag' talab etilishidan qat'i nazar, yirik axborot tarqatuvchi mavqeini egallash ekani ayon bo'lib qoldi. Jahonda "axborot urushi" ketayotganini hatto oddiy odamlar ham payqashi qiyin emas. Masalan, biron bir xorijiy mamlakatning turmush tarzi, qadriyatlar tizimini ulug'lovchi risolalar, kinofilmlar tarqatilmoqtsa, deylik. Tabiiyki, bunday axborotlar jamiyatda ma'lum ijtimoiy fikr shakllanishiga ta'sir etmay qolmaydi.

Demak, hozirda har bir axborot chegara bilmaslik xususiyatiga ega ekan, ongi va dunyoqarashi endigina shakllanayotgan yosh avlodning ma'naviy olami daxlsizligini asrash ko'pchilikni o'ylantirishi darkor. Internetni cheklab qo'yish yoki axborot olishni taqiqlash bilan muammo hal bo'lmaydi. Hayotni ham ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qilish qiyin bo'lgan hozirgi sharoitda internet yoshlar uchun asosiy axborot manbaiga aylanayotir.

Ammo, G'arb madaniyatiga taalluqli ba'zi ko'rsatuv va saytlar borki, ular mutlaqo axloqqa ziddir. Bunday axborot yoshlarimiz xulqi va dunyoqarashiga salbiy ta'sir qilishi aniq. Ayni o'rinda yana bir fikrni aytib o'tish joiz. "Oynai jahon" seriallar bilan to'lib-toshgani, bizningcha, ijobiy hol emas. Chunki yoshlar asosiy vaqtini shu seriallarni ko'rishga sarflashi ta'lim sifatiga ta'sir qilmay qolmaydi. Darvoqe, gazeta va jurnal sahifalarida chop etilayotgan axborot hamda ma'lumotlarning mazmunan sayozligi ham yoshlarimiz tafakkuriga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

[5] *https://datareportal.com/reports/digital-2024-uzbekistan?rq=Uzbekistan*

XXI asr boshida hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi, axborot oqimining kuchayishi oqibatida avtoritet - nufuz masalasi xam yangicha ma'no kasb etayotir. Ba'zi yoshlar o'zining bilim olish va hayotga munosabatini belgilashda ota-ona, ustoz-murabbiyni emas, OAV hamda internetni avtoritet sifatida e'tirof etishi, ulardagi axborot va ma'lumotlarni mutlaq chin deb ishonishi tashvishlanarli holdir.

Tajribasi ham bo'lmagan yoshlarning hayotiy tushuncha va tasavvurlarini asosan OAV hamda internet shakllantirmoqda. Bu esa ta'lim-tarbiya muassasalarining ish faoliyatini qiyinlashtirib qo'ymoqda. Axborotning katta oqimi sharoitida inson o'zini erkin his eta olishi uchun axborot madaniyatiga ega bo'lishi kerak. Bu o'rinda axborot madaniyati deyilganda ta'lim, ilmiy bilish va faoliyatning boshqa turlari davomida yuzaga keladigak axborotga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan bilimlar, o'quv va ko'nikmalarning tizimlashtirilgan yig'indisi tushuniladi.

Xulosa qilib aytganda, axborot madaniyatini shakllantirish masalasi jamiyat rivoji bilan bevosita bog'liq bo'lganligi sababli u mamlakat miqyosida ijtimoiy ahamiyatga molik masaladir. Shu sababli axborotlashgan jamiyat shakllanishi sharoitida axborotlashtirish jarayonining barcha sohaga oid jihatlarini o'rganish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi paytda millat va davlatning eng muhim resurslaridan biri insonlarning aqliy salohiyati va bilim darajasi hisoblanadi. Ijtimoiy taraqqiyot, avval tasavvur etib kelinganidek, yuqori turmush darajasiga erishgan yoki zamonaviy texnika ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan mamlakatlaremas, balki ta'lim va tarbiyaning yanada yuqori darajasini ta'minlashga erishgan mamlakatlar tarix sahnasining old qatorlariga chiqayotganligini ko'rsatmoqda.

Adabiyotlar:

1. Alisher Mo'minov Axborotlashgan jamiyat va shaxs axborot madaniyatini shakillantirish muammolari // Ijtimoiy fikr. inson huquqlari 2012 № 3 148.
2. http://oldconf.neasmo.org.ua/node/2509
3. https://datareportal.com/global-digital-overview
4. http://ru.wikipedia.org/wiki/Plan_ Dallesa.